

**THE ROLE OF SIRKHAK AND KEKHWA UNDON MOVEMENTS IN THE LITERATURE OF THE KOREAN ENLIGHTENMENT PERIOD****Maftuna Bakhramova***Lecturer**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Enlightenment movement, Confucianism, Sin Sosol, Sirhak, Kehwo Undon movement, Keman Undon, Western idea, periodical press, European civilization.

Received: 16.07.22**Accepted:** 18.07.22**Published:** 20.07.22

Abstract: The analysis of the complex literary processes that took place in the development of modern Korean literature is of great theoretical importance.

Unlike many other national literatures, Korean literature is characterized by rapid development during its development stage. During the country's transition from the feudal system to the capitalist system in a relatively short historical period, drastic changes also occurred in literature. This increases the importance of studying Korean literature of the late 19th and early 20th centuries.

Enlightenment literature occupies an important place in the formation process of modern Korean national prose. Elucidation of the study of the formation and development trends of the literature of the Enlightenment period is becoming urgent. The role of sirhak and kekhwa undon movements in the literature of the Korean Enlightenment period, the formation and development of the Korean Enlightenment literature, and the continuous efforts of the Enlightenmentists of the period to "awaken the people" are reflected in the article.

SIRXAK VA KEXVO UNDON HARAKATLARINING KOREYS MA'RIFATPARVARLIK DAVRI ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI**Maftuna Baxramova***O'qituvchi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Maʼrifatparvarlik harakati, konfutsiylik, sin sosol, sirxak, kexvo undon harakati, kemon undon gʻarbiy gʻoya, davriy matbuot, Yevropa sivilizatsiyasi.

Annotatsiya: Zamonaviy koreys adabiyoti taraqqiyotida sodir boʻlgan murakkab adabiy jarayonlarni tahlil qilish muhim nazariy ahamiyatga ega.

Koʻpgina boshqa milliy adabiyotlardan farqli oʻlaroq, koreys adabiyoti oʻz taraqqiyot bosqichi jarayonida jadal rivoji bilan ajralib turadi; mamlakatning nisbatan qisqa tarixiy davr ichida feodalizm tuzumidan kapitalistik tuzumga oʻtish jarayonida adabiyotda ham keskin oʻzgarishlar roʻy berdi. Bu esa XIX asr oxiri XX asr boshi koreys adabiyotini oʻrganishning muhimligini yanada yuksaltiradi.

Zamonaviy koreys milliy nasrining shakllanish jarayonida maʼrifatparvarlik adabiyoti muhim oʻrin egallaydi. Maʼrifatparvarlik davri adabiyotining shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini oʻrganish masalasini yoritish dolzarblik kasb etadi. Maqolada sirxak va kexvo undon harakatlarining koreys maʼrifatparvarlik davri adabiyotida tutgan oʻrni, koreys maʼrifatparvarlik adabiyotining shakllanish va rivojlanishi, davr maʼrifatparvarlarining «xalqni uygʻotish» ga boʻlgan uzluksiz harakatlari oʻz aksini topgan.

РОЛЬ СИРХАК И КЕХВО УНДОН ДВИЖЕНИЙ В ЛИТЕРАТУРЕ КОРЕЙСКОГО ПРОСВЕЩЕНИЯ

Мафтуна Бахрамова

Переподователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Просвещение, конфуцианство, Син Сосол, Сирхак, движение Кево Ундон, Кеман Ундон, западная идея, периодика, европейская цивилизация.

Аннотация: Анализ сложных литературных процессов, происходивших в развитии современной корейской литературы, имеет большое теоретическое значение.

В отличие от многих других национальных литератур корейская литература на этапе своего развития характеризуется быстрым развитием; При переходе страны от феодального строя к капиталистическому в сравнительно короткий исторический период произошли коренные изменения и в литературе. Это

повышает значимость изучения корейской литературы конца XIX начала XX веков.

Просветительская литература занимает важное место в процессе формирования современной корейской национальной прозы. Актуальным становится выяснение изучения тенденций становления и развития литературы эпохи Просвещения. В статье отражена роль движений сирхак и кехва ундон в литературе корейского Просвещения, становление и развитие корейской просветительской литературы, постоянные усилия просветителей этого периода по «пробуждению народа».

KIRISH

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmini o'z ichiga olgan davr Koreya tarixida o'ziga xos o'ringa egadir. Aynan shu davrga kelib Koreya feodal davlat tuzilishi va yopiq eshiklar siyosatidan voz kechib, Yevropa sivilizatsiyasi ta'siri ostiga tushdi. Tabiiyki, davlat va jamiyat hayotidagi bunday o'zgarishlar adabiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Koreyada burjuaziyaviy o'zgartirishlarni o'ziga maqsad qilgan ma'rifatparvarlik harakati yuzaga keldi. Davr ma'rifatparvarlari Yevropaning ilg'or bilim va madaniyatini targ'ib qilish orqali hanuzgacha mustahkam tomirga ega konfutsiychilik an'alariga qarshi o'laroq ta'lim tizimi, shuningdek, ozodlik va demokratiya g'oyasitini ilgari surdilar. Ularning fikricha, jamiyatni harakatlantiruvchi kuch ilmiy asosga ega bilimlar bo'lib, bu bilimlar feodal qoloqlikdan chiqish yo'li edi. Shu sabab ham ma'rifatparvarlar «Xorijiy bilimlarni egallash orqali, tubdan komillikka erishish» («내수외학») shiorini ilgari surdilar. Bu bilan ular ming yillik an'alaridan voz kechishni emas, o'zlikni saqlagan holda G'arbning zamonaviy bilimlarini egallab, davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishishni nazarda tutdilar.

ASOSIY QISM

1910 yilga kelib Chan Ji Yon boshchiligidagi «자강회» («O'zini o'zi boshqarish jamiyati», 1906 y.), Li Gap boshchiligidagi «서우학회» («G'arbone ta'lim tarafdorlari jamiyati», 1906 y.), Li Jun boshchiligidagi «흥학회» («Qiziqarli bilimlarni o'rganish jamiyati», 1907 y.) kabi bir necha ma'rifatparvarlik tashkilotlari yuzaga keldi. Ma'rifatparvarlik ta'sirida xususiy maktablar ochildi. «한문서당» kabi Seul konfutsiy ta'limoti maktabi yangi ta'lim uslubiga moslashtirilgan maktabga aylantirildi. Shaharlarda kattalar uchun ham birdek maktablar ochildi. Aytish joizki, ma'rifatparvarlik borasida amalga oshirilgan eng katta islohotlardan biri bu Chu Si Gyon, Chi Sok Yon va shu kabi yetuk olimlar tomonidan «milliy yozuv» – «국문운동»ni targ'ib va amalda tadbiq etilishi bo'ldi.

1898 yil avgust oyidan boshlab Koreyada davriy matbuot ishga tushdi. Matbuot nashri auditoriyasini ziyolilar tashkil etgan bo'lsa-da, yuqorida qayd etilgan islohotlar sabab keng auditoriyaga ega bo'ldi. Shuningdek, tarjima adabiyoti yuzaga kelishi sabab koreys xalqi jahon adabiyoti bilan tanishdi. Bu esa o'z navbatida adabiyotda yangi sahifa ochdi.

Ochiq eshiklar siyosati amalga oshirildi. Tashqi dunyo bilan muloqot va munosabatlar yo'lga qo'yildi. Zodagon va obro'li xonadon farzandlari Yaponiya, Xitoy va G'arb mamlakatlariga ta'lim olishga yuborildi. Zamonaviy ta'lim olib qaytgan, jamiyatda yangi islohot tarafdorlari davr taqozosidan kelib chiqqan holda antifeodal va antikolonial islohotlarni ilgari surdilar. Aslida XX asr boshida ma'rifatparvarlik harakati bo'sh joyda paydo bo'lmadi. Uning kurtaklari avvaldan mavjud edi. Jumladan, 1870-1880 yillari «Kexva undon» «계화운동» – Sivilizatsiya uchun harakati, XVIII asrdan to XIX asrgacha davom etgan Sirxak mafkurasi fikrimiz isboti bo'lib, ularning yagona maqsadi xalq savodxomligini oshirish negizida mamlakat taraqqiyotiga erishish g'oyasi asosida birlashish bo'lgan. Biroq, targ'ib etilayotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy islohotlar qarshilikka uchrab, o'z davrining yuqori qatlamlari bilan to'qnashuvlarga olib keldi. Shunday bo'lsa-da, bu jarayon ya'ni «xalqni uyg'otish» jarayoni to'xtovsiz davom etdi va o'z natijalarini bera boshladi. 1880 - yillarda iqtisodiy, harbiy, madaniy o'zgarishlar amalga oshirildi. Xususiy maktablar, maktab dars jadvallaridan tabiiy va zaruriy fanlar joy egallashi, 1883 yilda birinchi koreys gazetasi «Seul haftalik gazetasi» («항선순보») ta'sis etilishi bunga yaqqol misol bo'ladi. Islohotchilarning davlat boshqaruvini egallashga bo'lgan omadsiz harakati ularni mamlakatdan chiqib ketishiga sabab bo'lsa-da, xoriждан turib ma'rifatparvarlik ishlarini davom ettirishiga to'sqinlik qila olmadi.

Ta'kidlash joizki, Koreyadagi ma'rifatparvarlik mafkurasi o'ta murakkab g'oya va tushunchalardan iborat edi. Zero, u Koreyada asrlar davomida shakllangan, voz kechib bo'lmas milliy va an'anaviy qadriyat, tushuncha va G'arbdan o'zlashtirilgan ijtimoiy ta'limotlar sintezidan tashkil topgan edi.

Ma'rifatparvarlik davri adabiyoti mavzular ko'lami jihatidan ma'rifat va ziyoga chorlovchi romanlar, didaktik va fantastik nasrni o'z ichiga qamrab oldi. Yaratilayotgan yangi qissalar ommada jamiyatda bo'layotgan voqealarga nisbatan keskin reaksiyalarning uyg'onishiga sabab bo'ldi. Ma'rifatparvarlik davrigacha bo'lgan adabiyotda yozuvchi-ijodkorlar o'z asarlaridagi qahramonlarni qandaydir falokatga duchor qilib, ammo asarni xayrli tugatgan bo'lsalar, bu davrga kelib insonlarni turli xil qobiliyat va go'zalliklar egasi sifatida emas, bil'aks, ayanchli hayot egasi, tahqirlangan ayol obrazlarida tasvirladilar. Bularning bari «uyg'onish» uchun chorlov edi, deb yozdi Kim Donin.

Kemon undon ma'rifatparvarlik harakati safida yangicha uslubda yozadigan yozuvchi, shoirlardan bor edi. Ularning asosiy maqsadi milliy qadriyatlarni tiklash, koreys poyetik va dramatik janrlarni rivojlantirish bo'ldi.

Aynan shu paytda gazetalarda koreys tilida original qissa seriallari, ya'ni yangi nasr – *sin sosol* asarlari paydo bo'ldi. Dastlab qissa mualliflarning ismlari ko'rsatilmagan, hattoki nomlari ham yo'q holda chop etilgan. Yangi nasr o'zida yangi g'oyalarni ifoda etdi. Ularning aksariyati Koreyani Yevropalashtirishdagi harakatda rag'batlantiruvchi bo'lib, Koreyaning o'zida ma'rifatparvar, deb nomlangan. Bunga bog'liq ravishda zamonaviy koreysshunoslikda *sin sosol*ni odatda, maorif ma'rifat davri nasri bilan bog'laydilar. Koreysshunos rus olimi B.I.Ivanova mazkur davrda yaratilgan qissalarni 4 guruhga bo'ldi: ijtimoiy kamchiliklarni qoralovchi qissalar, bu guruhda obraz va vaziyatlar hayotiy bo'ladi; pand-nasihat qissalari; fantastik, falsafiy ma'no aks etgan qissalar; Yevropa va yaponiyalik mualliflarning qayta ishlangan asarlari.

Yangi qissa Koreyaning o'rta asr davridan yangi davrga o'tishi bilan bog'liq voqealarga nisbatan ijtimoiy reaksiyani ifoda etdi. Yangi nasrning vujudga kelishi adabiyotning tubdan qayta qurilishdagi yangi qadam edi. Buni kitobxon darhol sezdi. O'z davrida *sin sosol*da ijod qilmagan adibni topish mushkul edi. Har qanday adib o'z hayot yo'li haqida eslaganda, yangi nasrning birinchi tajribalari ta'siri haqida so'z yuritadi. Li Giyen quyidagicha yozdi:

«Men sin sosol asarlarini qanchalik ko'p mutolaa qilsam, shu qadar eski nasrdan yiroqlashdim. Taqdirimning «Chxiaksan tog'i» qissasi bosh qahramoni taqdiri bilan o'xshashligi meni lol qoldirdi. O'zim sezmagan holda men yangilikka bo'lgan intilishning umumiy oqimiga qo'shildim, rejalarim o'zgardi, men endi rohib bo'lishni xohlamas edim. Men Koreyaning barcha sakkiz provinsiylarini piyoda kezishni istamas edim. Endilikda men yangi qissa qahramonlari kabi chet elga ketib, G'arbiy tamaddun havosidan nafas olishni xohlardim».

Hayotni tezkor, darhol o'zgartirish ehtiyoji *sin sosol*da yozilgan barcha asarlarda mavjud. Bu asarlar koreys og'zaki nutqiga juda yaqin bo'lgan nutqda yaratilgan bo'lib, xitoy iyerogliflarida emas, balki koreys milliy alifbosi harflari bilan yozilgan. Bu jonli koreys nutqini ko'rsatish imkoniyatini berdi.

Bu davrga kelib vaqtli matbuotda hammasi bo'lib 130ga yaqin qissa nashr etildi. Bular qatoriga original asarlar hamda xorijiy tillardan o'girilgan asarlar kirdi. Adabiyot haqidagi tasavvur avvalgidek, yozma so'zning tarbiya roliga alohida ma'no kasb etgan an'analarga asoslandi.

Li Xejo «Gul qoni» asariga so'zboshida quyidagicha yozgan: «...adabiyotshunoslar nasr birinchi navbatda inson hissiyotlariga javob berishi, urf-odatlarini o'zgartirishi, jamiyatga pand-nasihat berishi, o'qish mutolaa qila oladigan ziyolilarga keyingi voqeylikni ko'rish imkoniyatini berishi lozim. Bu insonlar adabiyotning ezgu ta'siri ostida yangi hayotga keladi va mazkur

voqeylikni ko'ra oladi. Adabiyotshunoslar qissalarni yozishda nafaqat qiziqarlilikka, balki ta'sir o'tkazishga intilish lozim».

XULOSA

Koreys adabiyoti G'arbdan bir qator tayyor konstruksiyalarni olib o'ziga moslashtirdi. Bu koreys xalqi uchun «millat» maqsad, obraz sifatida xizmat qilganligidan dalolat beradi. Bu maqsadga erishish uchun harakat tug'ilishdan boshlanishi lozim edi va u asta-sekin shakllanadigan konsepsiya emas edi.

G'arbiy g'oyalar ta'siri ostida koreys adabiyotiga vatanparvarlik, jamoa farovonligi, muhabbat erkinligi, demokratik teng huquqlilik, shaxs erkinligi tushunchalari kirib keldi. Gazetalar anonim qissalarni nashr etishda davom etishiga qaramasdan, asta-sekin adabiyotga qarash ham o'zgardi, bunda adabiyot yozuvchi atrofdagi dunyoni individual idrok etishining akti sifatida tushunildi.

XX asrning birinchi 10 yilligini ayrim koreys tadqiqotchilari ma'rifatparvarlik davri, deb atashadi. Bunda G'arbiy madaniyat ta'siri koreys adabiyotining rivojlanish yo'nalishini belgilab berganligi alohida ta'kidlanadi. Il Insik 1939 yili nashr ettirgan «Yangi adabiyotning umumiy tarixi» asarida:

«...yangi zamon Sharq adabiyotining tarixini aslida G'arb adabiyotini import qilish va transplatatsiya qilish tarixi deb hisoblash mumkin». Bu fikrga ko'plab zamonaviy adabiyotshunoslar ham qo'shiladi. Ammo adabiyotshunos Yungu boshqa fikr: *«...bu davrga kelib, Koreya mustaqil tarzda o'zgarish uchun tayyor bo'lmasa-da, zamonaviylik ruhi mamlakatga Yevropadan kirib keldi, deb ta'kidlash noto'g'ri...»* ni bildirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Иванова В.И. Новая проза Кореи / В.И. Иванова. – М.: Наука, 1987. С.35.
2. Ли Ги Ен. Идеалы и труд. – Пхеньян, 1958. С.9-10.
3. Ли Инджик «Гора Чхиааксан». – Пхеньян, 1907.
4. Лотман, Ю.М. К построению теории взаимодействия культур: (семиотический аспект) / Ю.М. Лотман // Лотман Ю.М. Избранные статьи. В 3 т. Т. 1. – Таллин: Александра, 1992. С.118-119.
5. Liu, L.H. Translingual Practice: Literature, National Culture, and Translated Modernity - China, 1900-1937 / L.H. Liu. – Stanford: StanfordUniversity Press, 1995.
6. Просвительство в литературах востока, Сборник статей, В.И.Иванова – М.,1973, С.134.
7. 김윤식. 한국현대현실주의소설연구. – 서울: 文學과知性社, 1990. ㄱ. 49.